Kanadalik olimlar dengiz suvo‘tlaridan bioparchalanidgan plastik ishlab chiqishdi

// 16.07.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kanadalik-olimlar-dengiz-suvo-tlaridan-bioparchalanidgan-pla



Kanadalik olimlar guruhi yangi ekologik toza material — dengiz suvo‘tlariga asoslangan plastikni taqdim etdi. Ushbu ishlanma atrof-muhitni an’anaviy plastik chiqindilaridan himoya qilish va ayniqsa qishloq xo‘jaligida an’anaviy polietilenga alternativa bo‘lishi maqsadida yaratilgan.

Loyiha tashabbuskori — Britaniya Kolumbiyasidan biolog Ranax Chavoshi bo‘lib, u ushbu material ustida pandemiya davrida, quruqlikdagi tadqiqotlar to‘xtab qolgan paytda ish boshlagan.

Plastikning asosini tez o‘suvchi, o‘g‘it talab qilmaydigan va uglerod gazini so‘rib olish qobiliyatiga ega bo‘lgan qahvarang suvo‘tlar tashkil qiladi. Ular shuningdek, sohil hududlarida suv sifati yaxshilanishiga ham yordam beradi.Yaratilgan material egiluvchan va mustahkam bo‘lib, to‘liq parchalanadi va mikroplastik qoldirmaydi. Yaqin kelajakda jamoa bu plastikni odatiy plastik mulchani almashtiruvchi vosita sifatida qishloq xo‘jaligi fermalarida sinovdan o‘tkazishni rejalashtirgan. Ishlab chiquvchilarning ta’kidlashicha, bu usul tuproq ifloslanishini kamaytiradi va hosil salomatligini yaxshilashi mumkin.

Chavoshi va uning hamkori Steysi Goldberg tomonidan asos solingan PhyCo startapi mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar va fermentlar yordamida bioparchalanishni tezlashtirish texnologiyalarini rivojlantirish bilan shug‘ullanmoqda.

Garchi yangi materialning hozirgi narxi an’anaviy plastiknikidan balandroq bo‘lsa-da, tadqiqotchilar ishlab

chiqarish miqyosi oshirilganda uning narxi pasayishiga umid qilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati